

4

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
URGANCH DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI




BOLALARNING IJTIMOIIY MOSLASHUVI
FANINING
ISHCHI O‘QUV DASTURI
2024-2025o‘quv yili5 yillik sirtqi 1-kurs

Bilim sohasi:	100000 –Ta’lim
Ta’limsohasi:	110000 –Ta’lim
Bakalavriaty o‘nalishi:	60110200 – Maktabgacha ta’lim

Urganch - 2024

Mazkur fanning ishchi o'quv dasturi Urganch davlat pedagogika instituti Kengashi tamonidan 2023 yil _-sentabrdagi № 1 bayonnomaga asosan tasdiqlangan "Bolalarning ijtimoiy moslashuvi" fanining o'quv dasturi asosida tuzilgan.



Mazkur ishchi o'quv dasturi "Pedagogika" fakulteti Kengashining 2024-yil _-sentabrdagi yig'ilishida muhokama qilinib, tasdiqlash uchun tavsiya etilgan. (1-sonli bayonnoma)

Pedagogikafakulteti dekani:

E.Nabiyev

Mazkur ishchi o'quv dasturi "Maktabgacha ta'lim metodikasi" kafedrasining 2024-yil _-sentabrdagi yig'ilishida muhokama qilinib, tasdiqlash uchun tavsiya etilgan. (1-sonli bayonnoma)

"Maktabgacha ta'lim metodikasi"

kafedrasi mudiri:

X.Bekchanov

FAN TO'G'RIDA MA'LUMOT

Fan/modul kodi BI MI 07		O'quv yili 2023-2024 2024-2025	Semestr 1-semestr 2-semestr 3-semestr	ECTS - Kreditlar 1-semestr – 2 2-semestr – 2 3-semestr – 2	
Fan/modul turi Majburiy		Ta'lim tili O'zbek/rus		Haftadagi dars soatlari 1-semestr – 4 2-semestr – 4 3-semestr – 10	
1.	Fanning nomi	Auditoriya mashg'ulotlari (soat)		Mustaqil ta'lim (soat)	Jami yuklama (soat)
	Bolalarning ijtimoiy moslashuvi	1-semestr – 16 2-semestr – 16 3-semestr – 40		1-semestr – 44 2-semestr – 44 3-semestr – 20	180

FAN O'QITUVCHILARI HAQIDA MA'LUMOT:

Kafedra:	“Maktabgacha ta'lim metodikasi” kafedrası
Dastur muallifi:	Bekchanova Feruza Marimboy qizi Salavatova Hurshida San'at qizi Yusupova Feruza Hajiboy qizi Ahmedova Gulnoza Faxriddin qizi Nazarova Sadoqat Ilhom qizi
Telefon raqami	+998941121889 +998885126999 +998999636394 +998942367496 +998932882695
E-mail:	feruzamarimboyevna@gmail.ru hurshidasalavatova@gmail.ru feruzqayusupova911@gmail.ru
Tashkilot:	Urganch davlat pedagogika instituti

2.	I. Fanning mazmuni	
	Fanni o'qitishdan maqsad — gumanitar bilishning sohasi sifatida ijtimoiy - pedagogika, uning ob'ekti, tatqiqot predmeti va asosiy kategoriyalari haqida nazariy bilimlar berish. Bolani ijtimoiylashtirishning asosiy omillari va qonuniyatlari haqida yaxlit tasavvurlarni shakllantirish. Ijtimoiy - pedagogik faoliyatning o'ziga xosliklari va uning gumanistik yo'nalganligini yoritib berish. Turli yoshdagi bolalar bilan ijtimoiy - pedagogik faoliyat olib borishning asosiy metod va shakllarini o'rganish va amaliyotda qo'llay olishga o'rgatish. Fanning asosiy vazifalari talabalarda ijtimoiy pedagogikaning tarmoqlari; ijtimoiy pedagogika umumiy pedagogikaning tarkibiy qismi ekanligi; ijtimoiy pedagogikaning madaniy-tarixiy asoslari, etnografik va falsafiy negizlari; ijtimoiy pedagogikaning jamiyat hayotidagi ahamiyati; sotsial ish metod va texnologiyalari haqidagi bilimlarini shakllantirishdan iborat.	

II. Fan / modul mazmuni		
	Mashg'ulotlar shakli: ma'ruza (M) I-semestr	Dars soati
M1.	Ijtimoiy pedagogika fan sifatida. Ijtimoiylashuv tushunchasi jarayoni, vositalari. Ijtimoiylashtirishning omillari va mexanizmlari. Ijtimoiy pedagogika ta'rifi, tuzilishi va vazifalari. Ijtimoiy pedagogika tushunchasi. Ijtimoiy pedagogikaning boshqa fanlar bilan aloqadorligi. Ijtimoiy pedagogikaning sohalari va vazifalari. Ijtimoiy pedagogikaning asosiy kategoriyalari. Ijtimoiylashuv tushunchasi mazmuni. Ijtimoiy tarbiya va uning bosqichlari. Ijtimoiylashtirish-tarbiyaning bosh maqsadi. Makro, mikro omillar. Ijtimoiylashtirishning omillari va mexanizmlari. Ijtimoiylashuv jarayonida muhitning o'rni.	2

M2	Ijtimoiy pedagogika rivojlanishining madaniy-tarixiy asoslari. Tarbiya — ijtimoiy hodisa. Ijtimoiy pedagogikani va ijtimoiy-pedagogik faoliyat rivojining metodologik asoslari. O'zbekistonda ijtimoiy pedagogikaning rivojlanish tarixi. O'zbekistonda ommaviy maktabgacha ta'lim tashkilotlarining rivojlanishi va unda bolalarning ijtimoiylashuvi tarixi. Tarbiya — ijtimoiylashtirish omili. Ijtimoiylashtirish — tarbiyaning bosh maqsadi. Bolalik — insonning ijtimoiy hayot me'yorlarini egallay boshlash davri.	2
	Jami:	4
	Mashg'ulotlar shakli: ma'ruza (M) II-semestr	Dars soati
M1.	Bolalik — insonning ijtimoiy hayot me'yorlarini egallay boshlash davri. Pedagogika va ijtimoiy pedagogika kategoriyalari. Ijtimoiy tarbiyada mahallaning o'rnini. Maktabgacha yosh davri — ijtimoiy hayot me'yorlarini egallay boshlash davri. Ijtimoiylashuv omillarining - bola rivojlanishiga ta'siri. Shaxs, rivojlanish, faoliyat, ijtimoiylashuv, jamiyat ijtimoiy pedagogikaning asosiy kategoriyalari. Ijtimoiylashuv jarayoni. Tarbiya va ijtimoiy tarbiya. Milliy mentalitet va uning ijtimoiylashuvda tutgan o'rnini. Mahalla ijtimoiylashuvning an'anaviy omili sifatida. Ijtimoiylashuv jarayonida muhitning o'rnini.	2
M2.	Ijtimoiy muhit bolani tarbiyalashning omili sifatida. Ijtimoiy pedagogik faoliyatda bolalarning moslashuv ko'nikmalarini shakllantirish. Ijtimoiy pedagogikaning jamiyatda tutgan o'rnini. Tarbiya va ijtimoiy tarbiya. Bolaning sotsiumda rivojlanishi. Maktabgacha yoshdagi bolalar bilan olib boriladigan ijtimoiy pedagogik faoliyat. Bolalarni maktabgacha ta'lim tashkilotlari sharoitga moslashuvda pedagogning ro'li. MTT bolalarning moslashuv ko'nikmalarini shakllantirish texnologiyalari.	2
	Jami:	4
	Mashg'ulotlar shakli: ma'ruza (M) III-semestr	Dars soati
M1	Pedagogning oila bilan olib boradigan ijtimoiy faoliyati. Tarbiyachilar, bolalar va ota-onalarga psixologik-ijtimoiy yordam. Ta'lim-tarbiya rivojlantirish vazifalarini hal etishga ijtimoiy pedagogik yondashuv. Oila bilan ijtimoiy pedagogik faoliyat olib borish.	2

M2	Pedagogning bolalarning ijtimoiylashuvidagi ro'li. Ijtimoiy lashtirish — bolalar tomonidan guruhda ijtimoiy xulq-atvor me'yorlarining o'zlashtirilishi, qabul qilinishi va rioya etilishiga rahbarlik, bolalarning ijtimoiylashuvi sohalarini o'rganish va kengaytirish: dam olish vaqtlari, bayramlarni tashkil etishning texnologiyalari.	2
M3	Tarbiyachi shaxsida ijtimoiy munosabatlarni rivojlantirish metodlari. Tarbiyachi shaxsida ijtimoiy munosabatlarni rivojlantirishga oid kasbiy kompetentlikni rivojlantirish.	2
M4	Deviant xulq-atvor tushunchasi. Deviatziya va uning turlari. Derektiv xulq-atvor turlari. Oila bilan hamkorlikda ishlash	2
M5	Maktabgacha talim tashkiloti tarbiyachilarining bolalar bilan ijtimoiy faoliyatdagi o'rni. Ta'lim-tarbiya jarayonida tarbiyachining kreativ yondashuvi.	2
Jami:		10
Jami soat:		18

	III. Mashg'ubotlar shakli: Amaliy mashg'ubot (A) I-semestr	Dars soati
A1.	Ijtimoiy pedagogika fan sifatida. Ijtimoiy pedagogikaning asosiy kategoriyalari.	2
A2.	Pedagogika va ijtimoiy pedagogika kategoriyalari	2
A3.	Ijtimoiylashuv tushunchasi jarayoni, vositalari. Ijtimoiy muhit bolani tarbiyalashning omili sifatida.	2
Jami:		6
	III. Mashg'ubotlar shakli: Amaliy mashg'ubot (A) II-semestr	Dars soati
A1.	Tarbiyachi shaxsida ijtimoiy munosabatlarni rivojlantirish metodlari.	2
A2.	Ijtimoiy lashtirishning omillari va mexanizmlari.	2
A3.	MTT bolalarning moslashuv ko'nikmalarini shakllantirish texnologiyalari.	2
Jami:		6
	III. Mashg'ubotlar shakli: Amaliy mashg'ubot (A) III-semestr	Dars soati
A1	Ijtimoiy pedagogik faoliyatda bolalarning moslashuv ko'nikmalarini shakllantirish.	2
A2	Ijtimoiy pedagogika rivojlanishining madaniy-tarixiy asoslari.	2
A3	Madaniy sotsiurning bolal rivojlanishiga ta'siri.	2

A4	Bolalik — insonning ijtimoiy hayot me'yorlarini egallay boshlash davri.	2
A5	O'zbekistonda ommaviy maktabgacha ta'lim tashkilotlarining rivojlanishi va unda bolalarning ijtimoiy lashuvi tarixi.	2
A6	Tarbiya — ijtimoiy hodisa. Ijtimoiy tarbiyada mahallaning o'rni.	2
A7	Pedagogning bolalarning ijtimoiy lashuvidagi o'rni. Pedagogning oila bilan olib boradigan ijtimoiy faoliyati.	2
	Jami:	14
	Jami soat:	26

	IV. Mashg'ulotlar shakli: Seminar mashg'ulot (A) I-semestr	Dars soati
S1.	Ijtimoiy pedagogika fan sifatida.	2
S2.	Ijtimoiy lashuv tushunchasi jarayoni, vositalari.	2
S3.	Ijtimoiy lash tirishning omillari va mexanizmlari. Ijtimoiy pedagogika rivojlanishining madaniy-tarixiy asoslari.	2
	Jami:	6
	III. Mashg'ulotlar shakli: Seminar mashg'ulot (A) II-semestr	Dars soati
S1.	Tarbiya — ijtimoiy hodisa.	2
S2.	Bolalik — insonning ijtimoiy hayot me'yorlarini egallay boshlash davri.	2
S3.	Pedagogika va ijtimoiy pedagogika kategoriyalari.	2
	Jami:	6
	III. Mashg'ulotlar shakli: Seminar mashg'ulot (A) III-semestr	Dars soati
S1	Ijtimoiy tarbiyada mahallaning o'rni.	2
S2	Ijtimoiy muhit bolani tarbiyalashning omili sifatida.	2
S3	Ijtimoiy pedagogik faoliyatda bolalarning moslashuv ko'nikmalarini shakllantirish.	
S4	Pedagogning oila bilan olib boradigan ijtimoiy faoliyati.	2
S5	Pedagogning bolalarning ijtimoiy lashuvidagi o'rni.	2
S6	Tarbiyachilarda ijtimoiy munosabatlarni rivojlantirish.	2
S7	Tarbiyachi shaxsida ijtimoiy munosabatlarni rivojlantirishga oid kasbiy kompetentlikni rivojlantirish.	2
S8	Deviant xulq-atvor tushunchasi.	2
	Jami:	16
	Jami soat:	28

	IV. Mustaqil ta'lim mavzulari I semester	Topshiriq shakli	Dars soati
1.	Ijtimoiy pedagogikada ishon tirish metodi.	Keys topshiriqlarini bajarish	2
2.	MTT bolalarining moslashuv ko'nikmalarini shakllantirish texnologiyalari.	Axborot-tahliliy materiallar bilan ishlash	2
3.	Insonparvarlik tamoyili.	Keys topshiriqlarini bajarish	2
4.	Oilaga ijtimoiy pedagogik yordam shakllari.	Axborot-tahliliy materiallar bilan ishlash	2
5.	Bola rivojlanishida muhitning ta'siri.	Axborot-tahliliy materiallar bilan ishlash	2
6.	Tarbiya va ijtimoiy tarbiya.	Axborot-tahliliy materiallar bilan ishlash	2
7.	Tarbiyachi shaxsida ijtimoiy munosabatlarni rivojlantirishga oid kasbiy kompetentlikni rivojlanishi.	Konspekt yozish	2
8.	Ijtimoiy pedagogikani va ijtimoiy-pedagogik faoliyat rivojining metodologik asoslari.	Infografika tuzish	2
9.	Oila va uning asosiy funksiyalari.	Manbalar bilan ishlash	2
10.	Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ijtimoiy pedagogik ishlarni tashkil etish.	Darsdan tashqari mashg'ulotlar ishlanmasini tayyorlash	2
11.	Ijtimoiy pedagogika fanining joriy etilishi.	Darsdan tashqari mashg'ulotlar ishlanmasini tayyorlash	2
12.	Ijtimoiy pedagogik faoliyat metodlari.	Infografika tuzish	2
13.	Bola rivojlanishida ijtimoiy omillar.	Darsdan tashqari mashg'ulotlar ishlanmasini tayyorlash	2
14.	Oila, MTT va mahallaning hamkorligi.	Darsdan tashqari mashg'ulotlar ishlanmasini tayyorlash	2

15.	Oila bilan ishlashning asosiy ish shakllari.	Infografika tuzish	2
16.	Ijtimoiy pedagogika fanining joriy etilishi.	Infografika tuzish	2
17.	MTTning ota — onalar bilan olib boradigan ishlari.	Glossariy tuzish	2
18.	Ijtimoiy pedagogik faoliyat turlarining ahamiyati.	Darsdan tashqari mashg'ulotlar ishlanmasini tayyorlash	2
19.	Ijtimoiy lashtirishda xulqi og'ishgan bolalar bilan ish olib borish metodlari.	Darsdan tashqari mashg'ulotlar ishlanmasini tayyorlash	2
20.	Mahalla institutining bola rivojlanishidagi ro'li.	Infografika tuzish	2
21.	Bolalik — insonning ijtimoiy hayot me'yorlarini egallay boshlash davri.	Infografika tuzish	2
22.	O'zbekistonda ijtimoiy pedagogikaning rivojlanishi tarixi	Glossariy tuzish	2

Jami: **44**

	IV. Mustaqil ta'lim mavzulari II semester	Topshiriq shakli	Dars soati
1.	O'zbekistonda ommaviy maktabgacha ta'lim tashkilotlarining rivojlanishi va unda bolalarning ijtimoiy lashuvi tarixi.	Metodik ishlanmalar tayyorlash	2
2.	Bolalik — insonning ijtimoiy hayot me'yorlarini egallay boshlash davri.	Darsdan tashqari mashg'ulotlar ishlanmasini tayyorlash	2
3.	Ijtimoiy lashuv omillar - bola rivojlanishiga ta'siri.	Darsdan tashqari mashg'ulotlar ishlanmasini tayyorlash	2
4.	Ijtimoiy jarayonida muhitning o'rnini.	Infografika tuzish	2
5.	Milliy mentalitet va uning ijtimoiy lashuvda tutgan o'rnini.	Infografika tuzish	2
6.	Mahalla ijtimoiy lashuvning an'anaviy omili sifatida.	Glossariy tuzish	2
7.	Ijtimoiy lashuv jarayonida muhitning o'rnini.	Mavzuli portfolio tayyorlash	2
8.	Ijtimoiy pedagogikaning jamiyatda tutgan	Doklad tayyorlash	2

	o'mi.		
9.	Tarbiya va ijtimoiy tarbiya. Bolaning sotsiumdagi rivojlanishi	Darsdan tashqari mashg'ulotlar ishlanmasini tayyorlash	2
10.	Maktabgacha yoshdagi bolalar bilan olib boriladigan ijtimoiy-pedagogik faoliyat.	Infografika tuzish	2
11.	Bolalarni maktabgacha ta'lim tashkilotlari sharoitiga moslashuvda pedagogning ro'li	Infografika tuzish	2
12.	MTT bolalarning moslashuv ko'nikmalarini shakllantirish texnologiyalari.	Glossariy tuzish	2
13.	Tarbiyachilar, bolalar va ota-onalarga psixologik-ijtimoiy yordam.	Mavzuli portfolio tayyorlash	2
14.	Ta'lim-tarbiya rivojlantirish vazifalarini hal etishga ijtimoiy pedagogik yondashuv.	Doklad tayyorlash	2
15.	Oila bilan ijtimoiy pedagogik faoliyat olib borish.	Darsdan tashqari mashg'ulotlar ishlanmasini tayyorlash	2
16.	Ijtimoiylashtirish – bolalar tomonidan guruhda ijtimoiy xulq-atvor me'yorlarining o'zlashtirilishi, qabul qilinishi va rioya etilishiga rahbarlik, bolalarning ijtimoiylashuvi sohalarini o'rganish va kengaytirish: dam olish vaqtlari, bayramlarni tashkil etishning texnologiyalari.	Infografika tuzish	2
17.	Tarbiyachi shaxsida ijtimoiy munosabatlarni rivojlantirishga oid kasbiy kompetentlikni rivojlantirish.	Infografika tuzish	2
18.	Deviatsiya va uning turlari	Doklad tayyorlash	2
19.	Deviant xulq-atvor turlari.	Esse tayyorlash	2
20.	Oila bilan hamkorlikda ishlash	Esse tayyorlash Doklad tayyorlash	2
21.	Ta'lim-tarbiya jarayonida tarbiyachining kreativ yondashuvi	Darsdan tashqari mashg'ulotlar ishlanmasini tayyorlash	2
22.	Ijtimoiy pedagogika ta'rifi, tuzilishi va vazifalari.	Doklad tayyorlash	2
Jami:			44

	IV. Mustaqil ta'lim mavzulari III semester	Topshiriq shakli	Dars soati
1.	Ijtimoiy pedagogika tushunchasi. Ijtimoiy pedagogikaning boshqa fanlar bilan aloqadorligi.	Darsdan tashqari mashg'ulotlar ishlanmasini tayyorlash	2
2.	Ijtimoiy pedagogikaning sohalari va vazifalari.	Darsdan tashqari mashg'ulotlar ishlanmasini tayyorlash	2
3.	Ijtimoiy pedagogikaning asosiy kategoriyalari.	Infografika tuzish	2
4.	Ijtimoiylashuv tushunchasi mazmuni.	Infografika tuzish	2
5.	Ijtimoiy tarbiya va uning bosqichlari	Glossariy tuzish	2
6.	Ijtimoiylashtirish-tarbiyaning bosh maqsadi.	Mavzuli portfolio tayyorlash	2
7.	Makro, mikro omillar. Ijtimoiylashtirishning omillari va mexanizmlari.	Doklad tayyorlash	2
8.	Ijtimoiylashuv jarayonida muhitning o'rnini.	Esse tayyorlash	2
9.	Ijtimoiy pedagogikani va ijtimoiy-pedagogik faoliyat rivojining metodologik asoslari.	Esse tayyorlash	2
10.	Tarbiya – ijtimoiylashtirish omili. Ijtimoiylashtirish – tarbiyaning bosh maqsadi	Doklad tayyorlash	2
Jami:			20
Jami soat:			180

Ta'lim texnologiyalari va metodlari:

Ma'ruzalar - interfaol keys-stadilar; seminarlar (mantiqiy fiklash, tezkor savol-javoblar); guruhlarda ishlash; taqdimotlarni qilish; jamoa bo'lib ishlash va interaktiv usullar yordamida o'tilishi, mos ravishda munosib pedagogik va axborot texnologiyalar qo'llanilishi maqsadga muvofiq.

Amaliy mashg'ulotlarda - multimediya qurilmalari bilan jihozlangan auditoriyada har bir akadem guruhga alohida o'tiladi. Mashg'ulotlar faol va interfaol usullar yordamida o'tiladi. "Munozara" texnologiyasi ishlatiladi, savollar mazmuni o'qituvchi tomonidan belgilanadi. Ko'rgazmali materiallar va axborotlar multimediya qurilmalari yordamida amallar bajariladi.

Mustaqil ishlar quyidagi turlarda amalga oshirilishi tavsiya etiladi:

- esse – dolzarb mavzu bo'yicha shaxsiy fikrini tanqid, publitsistik va boshqa janrlarda yozma bayon qilish;
 - dokladlar tayyorlash;
 - kurs ishi yozish;
 - konspekt yozish;
 - glossariy tuzish;
 - individual va guruhiy o'quv loyihasi;
 - keys-topshiriqlarini bajarish;
 - mavzuli portfolio lar tuzish;
 - axborot-tahliliy materiallar bilan ishlash;
 - manbaalar bilan ishlash;
 - videorolik tayyorlash;
 - multimediali taqdimotlar yaratish;
 - darslarning metodik ishlanmalarini tayyorlash;
 - test tuzish
 - darsdan tashqari mashg'ulotlar ishlanmalarini tayyorlash;
- ta'lim yo'nalishi (mutaxassislik) ning xususiyatidan kelib chiqqan holda mustaqil ishlarning boshqa turlaridan foydalanish mumkin.

3.	V. Fano'qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar) Fanni o'zlashtirish natijasida talaba: • bolalarni ijtimoiy moslashtirish nazariyasi fanining maqsad va vazifalari o'zlashtirgandan so'ng uning mazmuni metodlari, pedagogikaning jamiyat hayotidagi ahamiyati, ijtimoiy moslashuvning ta'lim va tarbiya jarayonidagi ahamiyati to'g'risida bilimga ega bo'lishi; (bilim) • ijtimoiy pedagogikaning tibbiy-psixologik asoslari, ijtimoiy pedagogikaning madaniy-tarixiy, etnografik va falsafiy negizlari, sotsial ishlar metodlari, sotsial ishlar texnologiyasi, pedagogik sotsiologiya asoslari, mahallada va jamoada sotsial ishlarni rejalashtirish, pedagogik sotsiologiya metodlaridan unumli foydalanish, pedagogik jamoada muhit, pedagogning sotsial portreti, turli yoshdagi bolalar bilan ijtimoiy - pedagogik faoliyat olib borishning asosiy metod va shakllarini bilishi, ko'nikmasini hosil qilishi; (ko'nikma)
4.	VI. Ta'lim texnologiyalari va metodlari: • ma'ruzalar; • interfaol keys-stadilar; • seminarlar (mantiqiy fikrlash, tezkor savol-javoblar); • guruhlarda ishlash; • taqdimotlarni qilish; • individual loyihalar • Jamoa bo'lib ishlash va himoya qilish uchun loyihalar

5. VII. Kreditlarni olish uchun talablar:

Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'la o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushoxada yuritish va joriy, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo'yicha topshiriqni og'zaki topshirish.

6.

BAHOLASH MEZONI

Urganch davlat pedagogika instituti talabalarining kredit-modul tizimi bo'yicha ta'lim natijalarini baholash va nazorat qilish

TARTIBI

Umumiy qoidalar

1. "Talabalarining kredit-modul tizimi bo'yicha ta'lim natijalarini nazorat qilishning Tartibi" (keyingi o'rinlarda - Tartib deb ataladi) O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 31-dekabrda "Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim jarayonini tashkil etish bilan bog'liq tizimni takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 824-sonli qarori hamda o'quv jarayonida tadbir qilingan Pedagogika ta'lim sohasining o'quv-me'yoriy hujjatlari asosida ishlab chiqildi.

2. Mazkur Tartib Urganch davlat pedagogika instituti o'quv jarayonini kredit-modul tizimi asosida tashkil etilgan bakalavriat ta'lim yo'nalishlari va magistratura mutaxassisliklari, shuningdek, ta'limning kunduzgi, sirtqi (5 yillik) hamda ikkinchi oliy ta'lim shakllarida tahsil oluvchi talabalarining ta'lim natijalarini nazorat qilish turlari, usullari, baholash mezonlarini belgilab beradi.

3. Talabalarining ta'lim natijalari 100 ballik tizimda baholanadi.

Baholash tartibi va mezonlari

4. Talabalarining ta'lim natijalarini nazorat qilish quyidagi turlarda amalga oshiriladi:

joriy nazorat - modul (fan) bo'yicha seminar (amaliy, laboratoriya) mashg'ulotlari va mustaqil ta'lim bo'yicha ta'lim natijalarini muntazam baholab borish maqsadida o'tkaziladi. Joriy nazorat ballarining seminar (amaliy, laboratoriya) mashg'ulotlari va mustaqil ta'lim uchun taqsimlanishi ishchi dastur (Sillabus)da aniq belgilab qo'yilishi lozim;

oraliq nazorat(ON) - modul (fan) bo'yicha muayyan bob, bo'lim hamda mavzulardan ma'ruza mashg'ulotlari o'tib bo'linganidan so'ng, ta'lim natijalariga erishilish darajasini aniqlash maqsadida o'tkaziladi. Modul (fan) bo'yicha bir semestrda ma'ruza mashg'ulotlari uchun ajratilgan jami yuklama 1 kredit (30 soat)dan ortiq bo'lgan taqdirda, 2 marta oraliq nazorat o'tkazilishi mumkin, shuningdek, oraliq nazorat vaqtida talaba(lar)ning mustaqil ta'lim topshiriqlarini bajarishi bo'yicha to'plagan ballari inobatga olinadi;

yakuniy nazorat - modul (fan) bo'yicha semestr so'ngida talabalarining ta'lim natijalarini baholash maqsadida o'tkaziladi.

O'quv rejada fan yuzasidan kurs ishi (kurs loyihasi) bajarish belgilangan bo'lsa, kurs ishi (kurs loyihasi)ni muvafaqqiyatli himoyasidan so'ng yakuniy nazoratga kiritiladi. Kurs ishini topshirmagan yoki himoyasi qoniqsiz deb topilgan talaba yakuniy nazoratga kiritilmaydi.

Ta'lim natijalarini baholash uchun ballar quyidagi tartibda belgilanadi:

Joriy nazorat bali		Oraliq nazorat bali		Yakuniy nazorat bali
Auditoriya mashg'ulotida berilgan topshiriqlarni bajarilganligi uchun – joriy baholash (JB); Mustaqil ta'lim topshiriqlarini bajarganligi uchun – mustqil ishni baholash (MIB);		Oraliq nazorat vaqtida javob berganligi uchun – oraliq nazorat bali (ONB); Mustaqil ta'lim topshiriqlarini bajarganligi uchun– mustqil ishni baholash (MIB);		Yakuniy nazorat vaqtida javob berganligi uchun – yakuniy nazorat bali (YNB)
Joriy nazoratning maksimal bali 30 ball:		Oraliq nazoratning maksimal bali 20 ball:		Yakuniy nazoratning maksimal bali (YNB) 50 ball.
$\Sigma JN = JB + MIB$		$\Sigma ON = ONB + MIB$		
$\Sigma JN + \Sigma ON > 30$ ball bo'lgan talaba yakuniy nazorat topshirishga ruxsat beriladi.				
Modul(fan)dan o'zlashtirish ko'rsatkichi (O'K):				
$\Sigma O'K = \Sigma JN + \Sigma ON + YNB$				
$\Sigma O'K \geq 60$ ball bo'lganda modul(fan) o'zlashtirilgan hisoblanadi.				
5. Ta'lim yo'nalishining o'quv rejasidagi modul (fan)da ma'ruza mashg'ulotlari belgilanmagan taqdirda ham oraliq nazorat o'tkazilishi mumkin. Buning uchun modul(fan) sillabusida joriy nazorat hamda oraliq nazorat ballari taqsimoti aniq ko'rsatilgan bo'lishi lozim. 6. Talabalarining ta'lim natijalarini nazorat qilishda quyidagi usullardan foydalanish tavsiya etiladi: yozma, og'zaki, amaliy, test, o'quv loyihasi, assisment, portfolio va boshq. 7. Joriy nazorat talabalarining seminar (amaliy, laboratoriya) mashg'ulotlari, munozaralardagi ishtiroki, amaliy va keys hamda mustaqil ish topshiriqlarini baholash tarzida amalga oshiriladi. 8. Joriy nazorat tarkibiga mustaqil ta'lim bo'yicha ta'lim natijalarini baholash ham kiritilib, talabalarining loyihaviy faoliyatini tashkil etishni ko'zda tutishi shart. Oraliq nazorat tarkibiga mustaqil ta'lim bo'yicha ta'lim natijalarini baholash ham kiritilib, yozma, og'zaki, amaliy va test usullaridan birini tanlagan holda o'tkazilishi mumkin. Fan bo'yicha oraliq nazorat turi ishchi dastur (Sillabus)da aniq ko'rsatib qo'yilgan bo'lishi shart. Mustaqil ta'limni tashkil etish va nazorat qilish institut Kengashining 2023-yil _____dagi _____sonli qarorida belgilangan Tartibi asosida amalga oshiriladi. O'quv loyihalarini bajarish va o'tkazish tartiblari fanning xususiyatidan kelib chiqqan holda kafedralar tomonidan ishlab chiqiladi. Yakuniy nazorat bo'yicha talabalarining o'quv yutuqlarini baholash usullari (yozma, og'zaki, test, amaliy va boshq.) fanning xususiyatidan kelib chiqib, kafedralar tomonidan belgilanadi. Yakuniy nazorat tegishli semestrda o'zlashtirishni talab etuvchi modul(fan)lardan o'tkaziladi.				
9. Talabalarining ta'lim natijalarini baholash mezonlari:				
daraja	5 ballik tizim (baho)	O'zlash-tirish foizda	an'anaviyda	Baholash mezonlari
O'quv boshqarma		Professor-o'qituvchi uchun		

uchun				
A+	4,51 – 5	91 – 100	A'lo	Talaba materialni mustaqil ravishda tez o'zlashtiradi: xatolarga yo'l qo'ymaydi; mashg'ulotlarda faol ishtirok etadi; savollarga to'liq va aniq javob beradi.
A	4,26 – 4,5	86 – 90		talaba materiallarni mustaqil ravishda o'zlashtiradi: xatolarga yo'l qo'ymaydi; savollarga to'liq va aniq javob beradi.
B+	4,01–4,25	81 – 85	Yaxshi	talaba materiallarni yaxshio'zlashtirgan, uni mantiqiy ifoda eta oladi; mashg'ulotlarda faol ishtirok etadi; savollarga to'liq va aniq javob beradi, biroq uncha jiddiy bo'lmagan xatolarga yo'l qo'yadi.
B	3,51 – 4,0	71 – 80		talaba materiallarni yaxshio'zlashtirgan, savollarga to'liq va aniq javob beradi, biroq uncha jiddiy bo'lmagan xatolarga yo'l qo'yadi.
C+	3,26 – 3,5	66 – 70	Qoniqarli	asosiy materiallarni biladi, biroq aniq ifoda etishga qiynaladi; savollarga javob berishda aniqlik va to'liqlik yetishmaydi; materiallarni taqdim etishda ayrim xatoliklarga yo'l qo'yadi; kommunikatsiya jarayonida qiyinchilik sezadi.
C	3,0 – 3,25	60 – 65		asosiy materiallarni biladi, biroq aniq ifoda etishga qiynaladi; savollarga javob berishda aniqlik va to'liqlik yetishmaydi; materiallarni taqdim etishda ayrim xatoliklarga yo'l qo'yadi;
F	3,0 dan kam	59 dan past	Qoniqarsiz	materiallarni o'zlashtirmagan; savollarga javob bera olmaydi; mashg'ulotlarda ishtirok etmaydi

Mazkur mezon modul(fan)ning talaba tomonidan o'zlashtirilgan va baho bilan tasdiqlangan malaka darajasini aks ettiradi. Shuningdek, tegishli modul(fan)ni talaba tomonidan o'zlashtirgan ko'nikma va ularni amalda bajara olishini tavsiflash uchun xizmat qiladi.

10. Talabalarni baholashda quyidagilar hisobga olinadi:

mashg'ulotlardagi ishtiroki (davomat);
 mashg'ulotlardagi faollik va ijodkorlik;
 kichik guruhlarda va hamkorlikda ishlash;
 asosiy va qo'shimcha o'quv materiallarini o'zlashtirish;
 mustaqil ta'lim bo'yicha topshiriqlarni o'z vaqtida bajarish;
 nazoratning barcha turlarini o'z vaqtida bajarish.

11. Tegishli fandan o'zlashtirish ko'rsatkichi 60 ball va undan yuqori bo'lgan talabalarga fan bo'yicha kreditlar beriladi. Fandan o'zlashtirish ko'rsatkichi 59 ball va undan past bo'lgan talaba(lar)ga fan bo'yicha kredit berilmaydi.

Talabalarni fandan chetlashtirish, o'qishga qayta tiklash, kursdan kursga o'tkazish

12. Tegishli semestrda bir modul(fan)ga ajratilgan auditoriya (ma'ruza, seminar, amaliy, laboratoriya) soatining 25 foizi va undan ortiq soatni sababsiz qoldirgan talaba ushbu fandan chetlashtirilib, yakuniy nazoratga kiritilmaydi hamda mazkur fan bo'yicha tegishli kreditlarni o'zlashtirmagan hisoblanadi.

13. Nazorat turlari bo'yicha qoniqarsiz baholangan talabaga belgilangan muddat davomida bir marta qayta topshirishga imkon beriladi. Bunda oraliq nazorat turidan

qoniqarsiz baholangan talaba yakuniy nazoratgacha bo'lgan muddatda fakultet dekani tomonidan tasdiqlangan jadval asosida, yakuniy nazoratdan qoniqarsiz baholangan yoki mazkur nazoratga qo'yilmagan talabaga institut rektorining o'rnatilgan tartibda rasmiylashtirilgan akadem qarzdorlikni bartaraf etish to'g'risidagi buyrug'iga muvofiq, o'quv ishlari bo'yicha prorektor tomonidan tasdiqlangan nazoratlarni qayta topshirish to'g'risidagi jadval asosida qayta topshirishga ruxsat beriladi. **Fandan chetlashtirilgan talabaga yakuniy nazoratni qayta topshirishga ruxsat etilmaydi.**

O'rnatilgan tartibda qayta topshirish muddatlarida xam yakuniy nazorat turiga kiritilmagan yoki kirmagan, shuningdek, ushbu nazorat turi bo'yicha (F) qoniqarsiz baholgan talaba **akademik qarzdor** hisoblanadi va mazkur modul(fan)dan yozgi semestrda yoxud keyingi semestrlarda qayta o'qishga qoldiriladi.

Kuzgi semestr davomida fan(lar)ni o'zlashtirmagan talaba(lar) bahorgi semestrda o'qishni davom ettiradi.

14. Talabalarni kursdan kursga o'tkazish.

O'quv yili bo'yicha talabalarni kursdan kursga o'tkazish buyrug'i ikki marta chiqarilishi mumkin. Birinchi buyruq o'quv yili yakunlangandan so'ng 1 hafta muddatda rasmiylashtiriladi. Ikkinchi buyruq faqat yozgi semestrda o'qishga qolgan(akadem qarzdor)larning o'zlashtirish natijalariga ko'ra kuzgi semestr boshlanishidan 2 hafta avval rasmiylashtiriladi.

Ta'lim oluvchini kursdan kursga o'tkazish uning GPA qiymatini hisobga olgan holda amalga oshiriladi. 2022/2023 hamda 2023/2024 o'quv yillari uchun UrDPIda GPA qiymati 2,5 etib belgilanadi. Keyingi o'quv yillari uchun GPA qiymati o'tgan o'quv yili sarhisobiga ko'ra institut Kengashi tomonidan belgilanadi.

O'quv yili yakunida ta'lim natijalariga ko'ra GPA ning saralash qiymatidan past ko'rsatkichga ega talaba(lar) kursdan qoldiriladi. Semestr va o'quv yili yakuni natijalari bo'yicha akadem qarzdorligi bo'lgan talabalar o'qishdan chetlashtirilmaydi. Kursdan qolgan talabalar faqat akadem qarzdorlik bo'lgan fanlarni o'zlashtirish maqsadida, ularga mos ravishda shartnoma mablag'larini to'laydi va institut rektorining tegishli buyrug'i bilan amaldagi kursda o'qishga qo'yiladi. Akadem qarzdorligi sababli kursdan qoldirilgan talabaga o'qishga kirgan yilidan boshlab bakalavriatda 8 yilgacha, magistraturada 4 yilgacha shartnoma asosida qayta o'qishga ruxsat beriladi. Qayta o'qishga ruxsat berishda talabaning jami o'quv davri o'qishga qabul qilingan yilidan boshlab bakalavriatda 8 yil, magistraturada 4 yildan oshib ketmasligi inobatga olinishi shart. Mazkur muddatlarda tegishli kreditlarni to'plamagantalaba(lar)ning barcha kreditlari bekor qilinadi va talabalar safidan chetlashtiriladi. Bu tartibda talabalar safidan chiqarilgan talaba(lar)ning o'qishi qayta tiklanmaydi.

Ta'lim oluvchilarning kursdan kursga o'tkazishda majburiy fanlarning barchasi o'zlashtirilgan bo'lishi talab etiladi.

Yozgi semestrda qayta o'qishdan keyin ham tegishli kursda ta'lim oluvchining GPA qiymati o'quv yili uchun o'rnatilgan qiymatdan past va majburiy fan(lar) o'zlashtirilmagan bo'lsa talaba kursdan qoldiriladi.

15. Davlat granti asosida tahsil olgan, o'zlashtirish natijasiga ko'ra kursdan qolgan talaba o'qishini keyingi semestrlarda faqat to'lov kontrakt asosida davom ettirishi mumkin.

16. Kursdan qoldirilgan talabaning ta'lim yo'nalishi yoki ta'lim shakli mavjud bo'lmagan taqdirda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 20-iyundagi 393-son qarori bilan tasdiqlangan Oliy ta'lim muassasalari talabalari o'qishini ko'chirish, qayta tiklash va o'qishdan chetlashtirish tartibi to'g'risidagi Nizom talabalariga muvofiq turdosh ta'lim yo'nalishlariga o'qishni ko'chirib davom ettirishi mumkin.

Qayta o'qishni tashkil etish va amalga oshirish mexanizmi.

17. Qayta o'qish faqat to'lov-shartnoma asosida tashkil etiladi.

18. Davlat grantida tahsil oluvchi talabalar asosiy o'quv davri uchun davlat grantini saqlagan holda qayta o'qishga tegishli miqdordagi to'lovni amalga oshirishlari shart. To'lov-

kontrakt asosida tahsil oluvchi talabalar asosiy o'quv davri uchun to'lagan kontraktlaridan tashqari, qayta o'qishga tegishli miqdordagi to'lovni amalga oshirishlari shart.

19. Qayta o'qish quyidagi shakllarda bo'lishi mumkin:

- a) GPA ko'rsatkichiga ko'ra kursdan o'tgan, lekin ayrim fanlardan akadem qarzdorligi mavjud;
- b) GPA ko'rsatkichiga ko'ra kursdan qolgan.

20. Yozgi semestrda fanlardan qayta o'qishni tashkil etish ayni fanni qayta o'qish uchun ro'yxatga olingan talabalar soni(ROTS) kamida 8 nafar bo'lganda amalga oshiriladi. Qayta o'qishni tashkil etish mexanizmi 1-ildovada keltirilgan sxemaga ko'ra amalga oshiriladi.

OTMdagi qayta o'qish uchun ROTs 8 nafarga yetmagan taqdirda OTM rektori turdosh OTM rektori bilan akademik mobillik dasturiga muvofiq qayta o'qishlarni tashkil etishi mumkin. Bunda qayta o'qishga yuborilayotgan talaba kreditlar uchun to'lovni qayta o'qish tashkil etilayotgan OTM tomonga to'laydi. Boshqa OTMda qayta o'qishdan muvaffaqiyatli o'tgan talaba(lar)ga qayta o'qish yuzasidan o'quv ishlari bo'yicha prorektor tomonidan imzolangan, muxr bilan tasdiqlangan transkript taqdim etiladi hamda talabaning kreditlari u o'qiydigan OTM tomonidan tan olinadi va kursdan kursga o'tkazish uchun asos bo'ladi.

Modul(fan)lar bo'yicha qayta o'qish uchun to'lov qiymati institut tomonidan ta'lim shakliga mos ravishda joriy o'quv yilining kontrakt summasidan kelib chiqqan holda belgilanadi.

21. Talabaning akademik qarzdorlikni bartaraf etishi uchun qayta o'qishi 2-ildovada keltirilgan shakllarda amalga oshiriladi.

22. Qayta o'qishni tashkil etish talaba tashabbusiga ko'ra amalga oshiriladi. Bunda talaba ro'yxatga olish davrida institut rektori nomiga qayta o'qish istagini bildirgan holda ariza (3-ildova) bilan murojaat qilib, akadem qarzdorligi bo'lgan fanlardan tegishli kreditlarga mos shartnoma (4-ildova) to'lovini amalga oshirgan taqdirda ro'yxatga olinadi.

23. Qayta o'qishni tashkil etishda modul(fan)ning sillabusi soatbay asosida mehnat shartnomasi imzolangan professor-o'qituvchi tomonidan tuziladi va o'quv ishlari bo'yicha prorektor tomonidan imzolanadi. Bakalvriat va magistraturada qayta o'qish davri modul(fan)ning jami o'quv yuklamasini saqlagan holda auditoriya o'quv yuklamasi va mustaqil ta'lim hajmi 30/70 nisbatgacha olinishi mumkin.

24. Qayta o'qish offlayn yoki onlayn (elektron platforma orqali) tarzda amalga oshirilishi mumkin.

25. Yozgi semestrda qayta o'qishni tashkil etishda professor-o'qituvchi bilan soatbay asosida mehnat shartnomasi imzolanadi va soatbay asosidagi mehnatga haq to'lash qayta o'qish uchun to'langan shartnoma to'lovidan tushgan mablag'lardan to'lanadi.

26. Yozgi semestrda qayta o'qishni tashkil etishda talabaning akademik qarzdorligi bo'lgan fan o'qituvchisi bilan shartnoma imzolanmaydi.

27. Keyingi semestrlarda qayta o'qishni tashkil etilishida ROTs 8 nafardan kam bo'lganda mazkur talabalar tegishli amalda o'qiyotgan quyi kurslardagi akademik guruhlariga taqsimlab yuboriladi va bunda professor-o'qituvchiga qo'shimcha haq to'lanmaydi. Agar ROTs 8 nafardan ko'p bo'lsa alohida guruh tuziladi va 18-band tartibida qayta o'qishga haq to'lanadi.

7.

Asosiy adabiyotlar

- 1.Sodiqova Sh.A. Maktabgaya pedagogika T.: Tafakkur bo'stoni 2013
- 2.N.M. Egamberdiyeva Ijtimoiy pedagogika.- T. 2014 Darslik
- 3.O.U.Xasanboyeva va boshq. Oila pedagogikasi. Toshkent, «Fan va texnologiyalar» nashriyoti. 2007 yil.

4. M.Qayumova. Maktabgacha pedagogika.- T.: 2018 Darslik
5. Bobomurodov A. Islom odobi va madaniyati. T. "Cho'lon". 1995.
6. O'zbekiston mustaqil va taraqqiyot yo'lida "O'zbekiston" 1994y
7. Shodmonova Sh. Maktabgacha ta'lim pedagogikasi. Toshkent, «Fan va texnologiyalar» nashriyoti. 2008 yil.
8. Qodirov B.G. Komil inson tarbiyasining pedagogik asoslari. Toshkent «Mehnat» 2001 yil.
9. Maktabgacha ta'lim vazirining "1lk qadam" davlat dasturi Toshkent-2018yil
10. Maktabgacha ta'lim vazirining "O'zbekiston Respublikasi 1lk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan davlat talablari. Toshkent-2018yil. 1-mx-son buyrug'i.
11. S.A. Kozlova. Doshkolnaya pedagogika. Moskva. "Prosveteniye" 2000
12. Sostionalnaya pedagogika. / Kurs lekstiy — M.: Vldos., 2000
13. L.M. Mardaxaev. Sostionalnaya pedagogika Moskva, "Prosveteniye", 2006
14. F.A. Mustafayeva, Sostionalnaya pedagogika Moskva, "Prosveteniye", 2003
15. A.V. Mudrik. Sostionalnaya pedagogika Moskva, "Prosveteniye", 2005
16. Yu.V. Vasilkova, T.A. Vasilkova Sostionalnaya pedagogika Moskva 2006
17. Ovcharova R.V. Spravochnaya kniga sotsialnogo pedagoga. — M.: TS Sfera, 2002 yil

Qo'shimcha adabiyotlar

1. Mirziyoyev Sh.M. "Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash — yurt taraqqiyoti va xalq farovonligi garovi" mavzusidagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 24 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi ma'ruzasi. — T.: "O'zbekiston", 2017.-486.
2. Sh.M. Mirziyoyev Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik — har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. — T.: "O'zbekiston". — 2017—1026.
3. Sh.M. Mirziyoyev Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. — T.: "O'zbekiston", 2017. — 488 b.
4. Sh. M. Mirziyoyev 7-fevral 2017 yil kuni "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha "Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF4947 sonli farmoni.
5. Sh.M. Mirziyoyevning "2017-2021-yillarda Maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori. T.: -2016y. 29-dekabr

Axborot manbaalari

1. <http://www.tdpu.uz>
2. <http://www.ziyonet.uz/>
3. <http://www.google.co.uz>
4. <http://www.google.ru/>
5. <https://ru.wikipedia.org/>

Tuzuvchi:  F.M. Bekchanova

H.S. Salavatova

F.H. Yusupova

G.F. Ahmedova

S.I. Nazarova

G. Eshchanova

Taqrizchi: _____